

Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024-yil davomida korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi

YILLIK HISOBOT

I. Umumiy ma'lumot

Davaktiv agentligi tizimi (markaziy apparat, hududiy boshqarmalar va idoraviy mansub tuzilmalar) xodimlarining korruptsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korruptsiyaga oid boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq masalalar to'g'risida aloqa kanallari orqali 2024-yil davomida **11 ta** murojaat kelib tushgan bo'lib, ulardan 6 tasi Buxoro viloyati, 2 tasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 1 tasi Sirdaryo viloyati, 1 tasi Toshkent shahri va 1 tasi Jizzax viloyati hissasiga to'g'ri keladi.

Ushbu murojaatlarning kelib tushish manbalari tahlil qilinganda, 7 ta murojaat veb-sayt orqali, 3 ta murojaat pochta (to'g'ridan-to'g'ri) orqali va 1 ta murojaat ishonch telefoni orqali kelib tushgan.

II. Ko'rib chiqish natijalari

Davaktiv agentligi tizimi (markaziy apparat, hududiy boshqarmalar va idoraviy mansub tuzilmalar) xodimlarining korruptsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korruptsiyaga oid boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq masalalar to'g'risida aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlardan 8 tasi bo'yicha tuzilgan ma'lumotlarga huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi, 1 murojaat bo'yicha jamiyatning to'g'ridan-to'g'ri ta'sischiga yozma ko'rsatma yuborildi, 1 ta murojaat bo'yicha xodimga intizomiy jazo chorasi qo'llanildi va 1 ta murojaat o'z tasdig'ini topmadi.

III. Minimallashtirish choralar

Davaktiv agentligi tizimida korruptsiya faktlariga oid murojaatlarni tahlil qilib, korruption xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha quyidagi choralar ko'rildi:

- barcha boshqaruva xodimlaridan ehtimoliy va mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirish tizimi yo'lga qo'yildi;
- yangi xodimlar va korrupsiya xavf-xatar darajasi yuqori bo'lgan lavozimlarda ishlovchi xodimlarni doimiy ravishda mazkur yo'nalishda o'qitib borish tizimi yo'lga qo'yildi;
- barcha xodimlar uchun Bosh prokuratura va Korrupsiya qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda o'quv seminarlari tashkil etildi;
- davlat aktivlarini realizatsiya qilish va ijara berishda inson omilini kamaytirish borasida axborot tizimlari ishlab chiqildi, mavjudlari takomillashtirildi;
- xususiylashtirilgan davlat mulkiga order berish bo'yicha xizmatlar Davlat xizmatlari markazlari va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatilishi yo'lga qo'yildi;
- Davaktiv agentligi tomonidan ko'rsatiladigan 17 ta davlat xizmatlari Davlat xizmatlari markazlari va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatilmoqda.

**Korrupsiya qarshi kurashish
va komplaens bo'limi**